# XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHINING
# Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-131-11-152-K/25 Bag‘dod tumani

**Bag‘dod tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10001-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Bag‘dod tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari 162.8 mlrd.so‘m va xarajatlari esa 162.8 mlrd.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Bag‘dod tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 0.809 mlrd.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 2.205 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 $m^2$ uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari miqdorlar 5-ilovaga;

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari miqdorlari quyidagi 6-ilovaga;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkasi to‘g‘risidagi miqdorlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Davlatov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi o‘rinbosari (R.Matisayev), tuman soliq inspeksiyasi (A.Abduraxmonov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.To‘ychiboyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Davlatov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **SOLIYEV G‘ANIJON SHERALIYEVICH**

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Bag‘dod tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori**

*ming so‘mda*

| № | Daromad turlari | Bag‘dod tumani |
|---|---|---|
| | **JAMI** | **162 837 100** |
| 1 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 3 010 000 |
| 2 | Foyda solig‘i | 1 372 000 |
| 3 | Aylanmadan olinadigan soliq | 11 774 000 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 63 001 000 |
| 5 | Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan | 1 183 000 |
| | Aksiz solig‘i jami | 5 315 000 |
| | *alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)* | *0* |
| | *pivo* | *0* |
| 6 | *benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i* | *5 315 000* |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 5 444 000 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 15 407 000 |
| 9 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 14 652 000 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 31 551 000 |
| 11 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 704 000 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 2 484 600 |
| | shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i | 3 821 000 |
| | Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini | -1 528 400 |

| | | |
|---|---|---|
| | qaytarish (PQ-5) | |
| 13 | Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar | 0 |
| 14 | Davlat boji | 3 111 900 |
| 15 | Yig‘imlar | 858 600 |
| 16 | Jarimalar | 2 813 000 |
| 17 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 156 000 |

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun Bag‘dod tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

*ming so‘m*

| № | Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi | Bag‘dod tumani |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, jami** | | **162 837 100** |
| 1 | Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi | *62 093 432* |
| | *shundan:* | *x* |
| | *“Mening maktabim”* | *3 955 200* |
| 2 | Madaniyat bo‘limi | *9 200 053* |
| 3 | Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi | *6 888 177* |
| 4 | Sport bo‘limi | *9 126 072* |
| 5 | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi | *1 543 396* |
| 6 | Qishloq xo‘jaligi sohasi | *2 819 676* |
| 7 | Irrigatsiya bo‘limi | *2 519 134* |
| 8 | Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari | *1 978 782* |
| 9 | Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari | *97 660* |
| 10 | Hokimiyat | *46 143 547* |
| | *shundan:* | |
| | *Iqtisodiyot va moliya bo‘limi* | *0* |
| | *Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi* | *0* |
| | *Madaniyat bo‘limi* | *0* |
| | *Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi* | *0* |
| | *Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi* | *0* |
| | *Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi* | *0* |

| | | |
|---|---|---|
| | *Qishloq xo‘jaligi bo‘limi* | *0* |
| | *Oila va xotin-qizlar bo‘limi* | *0* |
| | *Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi* | *25 626 928* |
| | *“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari* | *2 752 252* |
| | *Zahira jamg‘armasi* | *2 205 284* |
| 11 | Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi) | *1 394 605* |
| | *shundan:* | *x* |
| | *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari* | *109 605* |
| | *Axborot-kutubxona markazlari* | *1 285 000* |
| 12 | Obodonlashtirish boshqarmasi | 19 032 566 |
| 13 | Boshqa tashkilotlar | 0 |

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

*ming so‘mda*

| T/r | Hudud nomi | MFYlar nomi | 2026-yil | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha) | Yer solig‘i stavkasi |
| 1 | Bog‘dod t | Na’muna | 0,94 | 40 936,0 |
| 2 | Bog‘dod t | Amirobod | 1,04 | 45 291,0 |
| 3 | Bog‘dod t | Chekmirzaobod | 0,94 | 40 936,0 |
| 4 | Bog‘dod t | Bog‘ishamol | 0,94 | 40 936,0 |
| 5 | Bog‘dod t | Qirqvolida | 1,04 | 45 291,0 |
| 6 | Bog‘dod t | Obod yurt | 0,94 | 40 936,0 |
| 7 | Bog‘dod t | Xo‘jaqishloq | 1,04 | 45 291,0 |
| 8 | Bog‘dod t | Qaroqchitol | 0,84 | 36 581,0 |
| 9 | Bog‘dod t | Qarovultepa | 0,94 | 40 936,0 |
| 10 | Bog‘dod t | Cho‘rindi | 1,04 | 45 291,0 |
| 11 | Bog‘dod t | Qo‘shchinor | 0,84 | 36 581,0 |
| 12 | Bog‘dod t | Qashqari | 0,84 | 36 581,0 |
| 13 | Bog‘dod t | Samandarak | 1,04 | 45 291,0 |
| 14 | Bog‘dod t | Muruvat | 1,04 | 45 291,0 |
| 15 | Bog‘dod t | Navro‘z | 0,94 | 40 936,0 |
| 16 | Bog‘dod t | Qorako‘l | 1,04 | 45 291,0 |
| 17 | Bog‘dod t | Qo‘g‘oli | 0,94 | 40 936,0 |
| 18 | Bog‘dod t | Irg‘oli | 0,94 | 40 936,0 |
| 19 | Bog‘dod t | Qahat | 1,04 | 45 291,0 |
| 20 | Bog‘dod t | Chuvalanchi | 1,04 | 45 291,0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 21 | Bog‘dod t | Tuvadaq | 0,94 | 40 936,0 |
| 22 | Bog‘dod t | Xitoy | 0,84 | 36 581,0 |
| 23 | Bog‘dod t | Istiqlol | 0,84 | 36 581,0 |
| 24 | Bog‘dod t | Bedarak | 0,84 | 36 581,0 |
| 25 | Bog‘dod t | Do‘rmancha | 0,84 | 36 581,0 |
| 26 | Bog‘dod t | Muqumiy | 1,12 | 48 775,0 |
| 27 | Bog‘dod t | Do‘stlik | 1,12 | 48 775,0 |
| 28 | Bog‘dod t | O‘zbekiston | 1,12 | 48 775,0 |
| 29 | Bog‘dod t | Ittifoq | 1,12 | 48 775,0 |
| 30 | Bog‘dod t | Nurafshon | 0,94 | 40 936,0 |
| 31 | Bog‘dod t | Dasht | 0,84 | 36 581,0 |
| 32 | Bog‘dod t | Qo‘shtegirmon 1 | 1,12 | 48 775,0 |
| 33 | Bog‘dod t | Cho‘lyunus | 0,94 | 40 936,0 |
| 34 | Bog‘dod t | Olchin | 0,94 | 40 936,0 |
| 35 | Bog‘dod t | Qo‘shtegirmon 2 | 1,12 | 48 775,0 |
| 36 | Bog‘dod t | Ultarma | 1,12 | 48 775,0 |
| 37 | Bog‘dod t | Yuksalish | 0,94 | 40 936,0 |
| 38 | Bog‘dod t | Bordon | 1,04 | 45 291,0 |
| 39 | Bog‘dod t | Cheksaroy | 0,84 | 36 581,0 |
| 40 | Bog‘dod t | Matqulobod | 0,94 | 40 936,0 |
| 41 | Bog‘dod t | Karimbobo | 0,84 | 36 581,0 |
| 42 | Bog‘dod t | Oydinbuloq | 0,84 | 36 581,0 |
| 43 | Bog‘dod t | Sayidobod | 0,94 | 40 936,0 |
| 44 | Bog‘dod t | Samarqand | 1,04 | 45 291,0 |
| 45 | Bog‘dod t | Mehnatobod | 0,94 | 40 936,0 |
| 46 | Bog‘dod t | Bag‘dod | 1,04 | 45 291,0 |
| 47 | Bog‘dod t | Zafarobod | 0,84 | 36 581,0 |
| 48 | Bog‘dod t | Begobod | 1,05 | 45 726,0 |
| 49 | Bog‘dod t | Konizar | 0,94 | 40 936,0 |
| 50 | Bog‘dod t | Sho‘raqer | 1,04 | 45 291,0 |
| 51 | Bog‘dod t | Mirzaobod | 1,04 | 45 291,0 |
| 52 | Bog‘dod t | Yuqori Mirzaobod | 0,84 | 36 581,0 |
| 53 | Bog‘dod t | Maylavoy | 0,94 | 40 936,0 |
| 54 | Bog‘dod t | Guliston | 0,94 | 40 936,0 |
| 55 | Bog‘dod t | Yangiobod | 0,94 | 40 936,0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 56 | Bog‘dod t | Chekxitoy | 0,94 | 40 936,0 |

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

**Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

*so‘mda*

| T/r | Hudud nomi | MFYlar nomi | 2026-yil | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha) | Yer solig‘i stavkasi |
| 1 | Bog‘dod t | Na’muna | 1,05 | 412,0 |
| 2 | Bog‘dod t | Amirobod | 1,08 | 423,0 |
| 3 | Bog‘dod t | Chekmirzaobod | 0,98 | 384,0 |
| 4 | Bog‘dod t | Bog‘ishamol | 0,88 | 345,0 |
| 5 | Bog‘dod t | Qirqvolida | 1,08 | 423,0 |
| 6 | Bog‘dod t | Obod yurt | 0,98 | 384,0 |
| 7 | Bog‘dod t | Xo‘jaqishloq | 0,98 | 384,0 |
| 8 | Bog‘dod t | Qaroqchitol | 0,98 | 384,0 |
| 9 | Bog‘dod t | Qarovultepa | 0,88 | 345,0 |
| 10 | Bog‘dod t | Cho‘rindi | 1,08 | 423,0 |
| 11 | Bog‘dod t | Qo‘shchinor | 1,08 | 423,0 |
| 12 | Bog‘dod t | Qashqari | 0,98 | 384,0 |
| 13 | Bog‘dod t | Samandarak | 0,98 | 384,0 |
| 14 | Bog‘dod t | Muruvat | 0,94 | 368,0 |
| 15 | Bog‘dod t | Navro‘z | 0,98 | 384,0 |
| 16 | Bog‘dod t | Qorako‘l | 1,08 | 423,0 |
| 17 | Bog‘dod t | Qo‘g‘oli | 0,98 | 384,0 |
| 18 | Bog‘dod t | Irg‘oli | 0,98 | 384,0 |
| 19 | Bog‘dod t | Qahat | 0,98 | 384,0 |
| 20 | Bog‘dod t | Chuvalanchi | 1,08 | 423,0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 21 | Bog‘dod t | Tuvadaq | 0,98 | 384,0 |
| 22 | Bog‘dod t | Xitoy | 0,98 | 384,0 |
| 23 | Bog‘dod t | Istiqlol | 0,88 | 345,0 |
| 24 | Bog‘dod t | Bedarak | 0,98 | 384,0 |
| 25 | Bog‘dod t | Do‘rmancha | 0,88 | 345,0 |
| 26 | Bog‘dod t | Muqumiy | 1,18 | 463,0 |
| 27 | Bog‘dod t | Do‘stlik | 1,18 | 463,0 |
| 28 | Bog‘dod t | O‘zbekiston | 1,18 | 463,0 |
| 29 | Bog‘dod t | Ittifoq | 1,18 | 463,0 |
| 30 | Bog‘dod t | Nurafshon | 0,98 | 384,0 |
| 31 | Bog‘dod t | Dasht | 0,88 | 345,0 |
| 32 | Bog‘dod t | Qo‘shtegirmon 1 | 0,98 | 384,0 |
| 33 | Bog‘dod t | Cho‘lyunus | 0,98 | 384,0 |
| 34 | Bog‘dod t | Olchin | 0,98 | 384,0 |
| 35 | Bog‘dod t | Qo‘shtegirmon 2 | 0,98 | 384,0 |
| 36 | Bog‘dod t | Ultarma | 0,98 | 384,0 |
| 37 | Bog‘dod t | Yuksalish | 0,98 | 384,0 |
| 38 | Bog‘dod t | Bordon | 0,98 | 384,0 |
| 39 | Bog‘dod t | Cheksaroy | 0,98 | 384,0 |
| 40 | Bog‘dod t | Matqulobod | 0,98 | 384,0 |
| 41 | Bog‘dod t | Karimbobo | 0,88 | 345,0 |
| 42 | Bog‘dod t | Oydinbuloq | 0,88 | 345,0 |
| 43 | Bog‘dod t | Sayidobod | 0,98 | 384,0 |
| 44 | Bog‘dod t | Samarqand | 0,98 | 384,0 |
| 45 | Bog‘dod t | Mehnatobod | 0,98 | 384,0 |
| 46 | Bog‘dod t | Bag‘dod | 0,98 | 384,0 |
| 47 | Bog‘dod t | Zafarobod | 0,88 | 345,0 |
| 48 | Bog‘dod t | Begobod | 1,05 | 412,0 |
| 49 | Bog‘dod t | Konizar | 1,04 | 408,0 |
| 50 | Bog‘dod t | Sho‘raqer | 0,98 | 384,0 |
| 51 | Bog‘dod t | Mirzaobod | 0,98 | 384,0 |
| 52 | Bog‘dod t | Yuqori Mirzaobod | 0,98 | 384,0 |
| 53 | Bog‘dod t | Maylavoy | 0,98 | 384,0 |
| 54 | Bog‘dod t | Guliston | 0,93 | 365,0 |
| 55 | Bog‘dod t | Yangiobod | 0,93 | 365,0 |
| 56 | Bog‘dod t | Chekxitoy | 0,93 | 365,0 |

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi**

*so‘mda*

| Hududlar | Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi | | G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar | |
|---|---|---|---|---|
| | Koeff itsiyent | Mutloq qiymat | Koeffitsiyent | Mutloq qiymat |
| Bag‘dod tumani | 1,05 | 5 618,0 | 1,05 | 5 190,0 |

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari**

*so‘mda*

| № | Hudud nomi | 2026-yil uchun | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 m.kv turar joylar uchun | | 1 m.kv noturar joylar uchun | |
| | | Koeffitsiyent | Yakuniy stavkasi | Koeffitsiyent | Yakuniy stavkasi |
| 1 | Bog‘dod tumani | 1,05 | 6 195,00 | 1,05 | 12 390,0 |

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-11-152-K/25 -son qaroriga
7-ilova

## Bag‘dod tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkasi to‘g‘risida

*so‘mda*

| T/r | Hudud | 2026-yil uchun taklif (0.07 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llaganda) | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Iktisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun | | | | Sanoat korxonalari uchun | | | | Alkogolsiz ichimlik larni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot larini ishlab chiqarish uchun | | Avtotransport vositalarini yuvish uchun | |
| | | Yer usti | | Yer osti | | Yer usti | | Yer osti | | | | | |
| | | Koeff itsiyent | Stavka | Koeff itsiyent | Stavka | Koeff itsiyent | Stavka | Koeff itsiyent | Stavka | Koeffitsiyent | Stavka | Koeff itsiyent | Stavka |
| 1 | Bag‘dod tumani | 1,12 | 839,0 | 1,12 | 1 019,0 | 1,12 | 839,0 | 1,12 | 1 019,0 | 1,07 | 43 506,0 | 1,12 | 17 976,0 |